

## XII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yil 1 aprel holatiga viloyatda doimiy aholi soni 1 983,3 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 6,5 ming kishiga yoki 0,3 foizga ko'paydi.

### Buxoro viloyatining doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2022 yil 1 aprel holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foiz		
	Jami	shu jumladan:		Jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 983,3</b>	<b>729,2</b>	<b>1 254,1</b>	<b>101,6</b>	<b>101,7</b>	<b>101,6</b>
Buxoro sh.	282,0	260,1	24,9	101,1	101,3	100,0
Kogon sh.	62,6	62,6	-	101,5	101,5	-
<i>tumanlar</i>						
Buxoro	172,7	39,5	133,2	101,9	102,3	101,8
Vobkent	144,0	27,9	116,1	101,6	101,5	101,7
Jondor	179,8	34,4	145,4	101,6	101,5	101,7
Kogon	81,5	5,9	75,6	102,3	103,5	102,2
Olot	101,6	38,2	63,4	101,3	101,6	101,1
Peshko'	127,1	16,1	111,0	101,8	101,9	101,7
Romitan	146,8	36,7	110,1	101,8	102,2	101,7
Shofirkon	182,3	42,0	140,3	101,7	101,7	101,7
Qorako'l	167,9	64,3	103,6	101,5	101,6	101,4
Qorovulbozor	19,2	11,0	8,2	103,2	103,8	102,5
G'ijduvon	312,8	90,5	222,3	101,6	102,4	101,3


**Doimiy aholi sonida erkak va ayollar to'g'risida ma'lumot**  
(2022 yil 1 aprel holatiga)

	<i>Doimiy aholi soni, ming kishi</i>		
	<i>Jami</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>erkak</i>	<i>ayol</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 983,3</b>	<b>993,6</b>	<b>989,7</b>
Buxoro sh.	285,0	141,5	143,5
Kogon sh.	62,6	30,5	32,1
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	172,7	86,5	86,2
Vobkent	144,0	72,5	71,5
Jondor	179,8	89,0	90,8
Kogon	81,5	40,4	41,1
Olot	101,6	50,9	50,7
Peshko'	127,1	63,7	63,4
Romitan	146,8	74,4	72,4
Shofirkon	182,3	91,9	90,4
Qorako'l	167,9	83,0	84,9
Qorovulbozor	19,2	9,5	9,7
G'ijduvon	312,8	159,8	153,0

2022 yil 1 aprel holatiga Buxoro viloyatining shahar va tumanlar kesimida eng ko'p aholi soni G'ijduvon tumanida 312,8 ming kishini (viloyat aholi sonidagi ulushi 15,8 foiz), Buxoro shahrida 285,0 ming kishini (14,4 foiz), Shofirkon tumanida 182,3 ming kishini (9,2 foiz) va Jondor tumanida 179,8 ming kishini (9,1 foiz) tashkil etdi.

## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o‘shish sur‘ati

(2022 yil 1 aprel holatiga, foizda)



Hududlar bo‘yicha 2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan aholi sonining eng yuqori o‘shishi Buxoro tumanida (1,9 foiz), Peshko‘ tumanida (1,8 foiz), Romitan tumanlari (1,8 foiz) va Shofirkon tumanida (1,7 foiz) kuzatildi.


## Aholi soni to'g'risida ma'lumot

(2022 yil, 1- yanvar kishi)

	<i>Jami aholi soni</i>	<i>shundan:</i>			
		<i>0-2 yosh</i>	<i>3-6 yosh</i>	<i>7-16 yosh</i>	<i>0-16 yosh</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 976 823</b>	<b>122 615</b>	<b>150 774</b>	<b>325 935</b>	<b>599 324</b>
Buxoro sh.	283 822	17 604	17 685	46 337	81 626
Kogon sh.	62 335	3 866	4 051	10 710	18 627
<i>tumanlar</i>					
Olot	101 359	6 287	7 990	17 181	31 458
Buxoro	172 241	10 683	12 374	27 956	51 013
Vobkent	143 577	8 906	11 164	22 642	42 712
G'ijduvon	311 770	19 338	25 611	52 867	97 816
Kogon	81 123	5 032	6 659	13 457	25 148
Qorako'l	167 398	10 383	13 544	28 441	52 368
Qorovulbozor	19 077	1 183	1 363	3 041	5 587
Peshko'	126 700	7 859	10 660	20 746	39 265
Romitan	146 344	9 077	11 715	23 347	44 139
Jondor	179 360	11 125	14 324	30 629	56 078
Shofirkon	181 717	11 272	13 634	28 581	53 487

## Doimiy aholi sonining asosiy yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi

(2022 yil 1 yanvar; jamiga nisbatan foizda)




## 2022 yil yanvar-mart oylarida tug'ilish, nikoh va nikohdan ajralishlar

	kishi			har 1000 kishiga	
	2021 yil	2022 yil <sup>1)</sup>	o'sish, kamayish	2021 yil	2022 yil
Tug'ilganlar	8 107	9 352	1 245	16,9	19,2
O'lganlar	2 043	2 241	198	4,3	4,6
shu jumladan: 1 yoshgacha o'lgan bolalar	83	104	21	8,2	10,3
Tabiiy o'sish	6 064	7 111	1 047	12,6	14,6
Nikohlar	3 886	3 708	-178	8,1	7,6
Ajralishlar	500	666	166	1,0	1,4

<sup>1)</sup> dastlabki ma'lumot


## 2022 yil yanvar-mart oylarida tug'ilganlar

(har 1000 kishiga)




## Doimiy aholi soni

(2022 yil 1 aprel holatiga, ming kishi)



**Tug‘ilish.** 2022 yil yanvar-mart oylarida tug‘ilganlar soni 9 352 kishini (bu erda va bundan keyin tug‘ilganlar sifatida faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (8107 kishi) nisbatan 1245 taga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 19,2 promilleni tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (16,9 promille) nisbatan 2,3 promillega ko‘paydi.

**Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti**  
(2022 yil yanvar – mart)



*Ma'lumot uchun:*

2022 yil davomida eng ko'p tug'ilish yanvar oyida, ya'ni 3508 kishi qayd etilganligi kuzatildi

Tug‘ilish koeffitsientining sezilarli darajada o‘shishi Buxoro(14,6 promilledan 24,3 promillega) va Kogon (18,9 promilledan 21,9 promillega) shaharlarida qayd etildi.

*Ma'lumot uchun:*

*Oxirgi 3 yillikda Buxoro viloyatida eng yuqori tug'ilish 2021 yilda, ya'ni 43,2 ming bola, 2020 yilda, ya'ni 41,5 ming bola, aksincha eng past - 2019 yilda, ya'ni 41,3 ming bola qayd etilgani kuzatildi.*


**O'lim darajasi.** 2022 yil yanvar-mart oylarida o'lganlar soni 2241 kishini tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (2043 kishi) nisbatan 198 taga ko'paydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 4,6 promilleni tashkil qildi (2021 yil yanvar-martda 4,3 promille).

*Ma'lumot uchun:*

*2022 yil davomi eng ko'p o'lim fevral oyida, ya'ni 869 kishi qayd etilgani kuzatildi.*

### Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsienti

(2022 yil yanvar – mart)






O‘lim sonining kamayganligi barcha tumanlarida kuzatildi. Ro‘yxatga olingan jami o‘lganlarning 67,4 foiz qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,8 foiz o‘simtalardan, 4,8 foiz baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,8 foiz ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 4,9 foiz nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 0,7 foiz yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 10,6 foiz boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### 2022 yil yanvar-mart oylarida o‘lganlarning asosiy o‘lim sababi bo‘yicha taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan foizda)



Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022 yil yanvar-mart oylarida 1 yoshgacha bolalar o‘limi 104 nafarni tashkil etib, go‘daklar o‘limi koeffitsienti 10,3 promilleni (2021 yil yanvar-mart oylarida 8,2 promille bo‘lgan) tashkil etdi.

**Migratsiya.** Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 1510 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 2163 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig‘i minus 653 kishiga (2021 yilning shu davrida minus 1282 kishi) teng bo‘ldi.

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi G‘ijduvon tumani (minus 196), Buxoro shahar (minus 145) hamda Qorako‘l (minus 124) tumanida qayd etildi. Migratsiya saldosi ijobiy darajasi Kogon (plyus 53) va Qorovulbozor (plyus 35) tumanlarida kuzatildi.

**Aholi migratsiyasi**  
(yanvar-mart, kishi)

	<i>Kelish</i>		<i>Ketish</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2 175</b>	<b>1 510</b>	<b>3 457</b>	<b>2 163</b>	<b>-1 282</b>	<b>-653</b>
Buxoro sh.	657	327	783	472	-126	-145
Kogon sh.	144	126	162	130	-18	-4
<i>tumanlar</i>						
Buxoro	428	230	263	196	165	34
Vobkent	85	64	213	132	-128	-68
Jondor	53	70	164	109	-111	-39
Kogon	236	180	168	127	68	53
Olot	44	28	152	66	-108	-38
Peshko‘	56	48	143	74	-87	-26
Romitan	56	64	144	87	-88	-23
Shofirkon	97	86	352	198	-255	-112
Qorako‘l	64	41	296	165	-232	-124
Qorovulbozor	129	87	63	52	66	35
G‘ijduvon	126	159	554	355	-428	-196


**Nikohlar.** 2022 yil yanvar-mart oylarida FHDYO organlarida 3708 ta nikohlar olingan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan 7,6 ta nikoh tuzish (2021 yilning tegishli davrida 8,1 ta) koeffitsienti 0,5 promillega kamaydi.

Ma'lumot uchun:

2022 yil davomida eng ko'p nikoh yanvar oyida, ya'ni 1 320 ming birlik qayd etilgani kuzatildi

Nikoh tuzish koeffitsientining o'sishi Kogon tumani (7,6 promilledan 7,9 promillega), Jondor tumani (8,8 promilledan 9,0 promillega) va Buxoro shahar (9,0 promilledan 9,1 promillega) kuzatildi.

Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti<sup>1)</sup>  
(yanvar-mart)



**Nikohdan ajralishlar.** 2022 yil yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 666 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan 1,4 ta nikohdan ajralishlar (2021 yilning tegishli davrida 1,0 ta) nisbatan 0,4 ko'paydi. Nikohdan ajralish koeffitsientining sezilarli darajada o'sishi Buxoro shahrida (1,8 dan 2,8 promillega) kuzatildi.

Ma'lumot uchun:

2022 yil davomida eng ko'p nikohdan ajralish mart oyida, ya'ni 245 birlik qayd etilgani kuzatildi.

### Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti (yanvar-mart)

